



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 17-yanvar

19-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 14-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-son qarori ijrosi haqida”gi 15-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora -tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-son, Xalq deputatlari Mingbuloq tumani Kengashining “Mingbuloq tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2024-yil 27-dekabrda VII-4-018-6-81-K/24-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 14-yanvarda 15-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 14-yanvarda 15-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-son qarori bilan: quyidagi soliq turlari bo‘yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida to‘liq hajmda qoldirilishi:

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘liq hajmda;

foyda solig‘i to‘liq hajmda (mazkur qarorga 4-ildavda ko‘rsatilgan yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘i bundan mustasno);

qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasida daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismining ning 100 foizi, qolgan hududlarda esa 60 foizi (mazkur qarorga 4-ildavda ko‘rsatilgan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i bundan mustasno);

Bunda soliq turlari bo‘yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismini hisoblashda yirik soliq to‘lovchilardan tushumlar (mazkur qarorga 4-ildavda ko‘rsatilgan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan foyda va qo‘shilgan qiymat soliqlari bundan mustasno) hududlar kesimida inobatga olinishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga narxlar (tariflar) va qonunchilik hujjatlari o‘zgarishidan kelib chiqib, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha daromadlar prognozini tasdiqlangan ko‘rsatkichlar doirasida hududlar kesimida qayta taqsimlash huquqi berilganligi;

2024-yil IV-chorak yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, Viloyatlarning Viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetiga daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismini o‘tkazish 2025-yil yanvar oyida amalga oshiriladi va 2024-yilgi hisobotlarda aks ettirilishi;

Shuningdek, 2025-yilda ijtimoiy soliq tushumlari bo‘yicha 2024-yilda amal qilgan taqsimlash me‘yorlari saqlab qolinishi;

2025-yilda uy-joy fondining ko‘chmas mulk obyektlariga, shuningdek, ular egallab turgan yer uchastkalariga nisbatan quyidagilar belgilanganligi:

2018-yilda belgilangan kadastr qiymati asosida hisoblangan jismoniy shaxslarning mol -mulkiga solinadigan soliq summasi 2024-yil uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun yer solig'i summasi 2024-yilda hisoblab chiqarilgan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

Belgilanishicha, mustaqil baholash o'tkazilgan va soliq organlariga taqdim etilgan, shu jumladan, o'tgan ikki yilda o'tkazilgan mustaqil baholash natijalari jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari 2025-yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bazasi sifatida e'tirof etilishi;

Bunda soliq to'lovchilar 2025-yil aprel oyiga qadar mustaqil baholashni o'tkazish bo'yicha soliq organlarini xabardor qilishi lozimligi;

Soliq qo'mitasining maxsus jamg'armasiga noruda qurilish materiallaridan yer qo'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining 3 foizi yo'naltirilishi;

Bunda yo'naltiriladigan mablag'lar noruda foydali qazilma hajmini haqiqatda aniqlash bo'yicha o'lchov ishlarini amalga oshirish uchun qo'shimcha marksheyderlik xizmatini jalb qilish, zamonaviy videokuzatuv asboblari va qazib olingan foydali qazilmalarni o'lchash uskunalarini xarid qilish uchun sarflanishi;

Soliq qo'mitasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi bilan birgalikda har chorak yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritib borilishi;

Soliq qo'mitasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va Bojxona qo'mitasi bilan birgalikda 2025-yil 1-iyulga qadar tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar bo'lgan ichimliklar ro'yxatini shakllantirish, ular tarkibidagi shakar va boshqa moddalar miqdori hisobini yuritish va uni yangilab borish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqishi va amaliyotga joriy etishi belgilanganligi;

Qishloq xo'jaligi vazirligi:

2025-yil 1-aprelga qadar "O'zdavero'yiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti, Soliq qo'mitasi va Statistika agentligi bilan birgalikda qishloq xo'jaligi yerlariga ega bo'lgan barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, dehqon xo'jaliklariga yer solig'ini hisoblash uchun ushbu yerlarning normativ qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazishi;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2025-yil 1-iyulga qadar qishloq xo'jaligi yerlarining toifasi va bonitet balidan kelib chiqqan holda yerning normativ qiymatini aniqlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qaror loyihasi ishlab chiqib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

2025-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga hamda tumanlar va shaharlar budjetlariga davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar ularning qo'shimcha manbalari hisoblanishi va 2025-yilda maqsadli ravishda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish uchun yo'naltirilishi belgilanganligi;

Birinchi darajali byudjet mablag'lari taqsimlovchilari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari 2025-yilda "tejamkorlik va barqarorlikni ta'minlash" tamoyili asosida byudjet mablag'larini tejash va samaradorligini oshirish bo'yicha barcha zaruriy choralarni ko'rishi;

Bunda, O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti taqchilligi cheklangan miqdorining oshib ketishiga olib kelishi mumkin bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan qo'shimcha xarajatlar faqat qo'shimcha daromad manbai mavjud bo'lganda yoki boshqa xarajatlarni qisqartirish hisobiga amalga oshirishi;

Quyidagilar bo'yicha:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining boshqaruv xodimlari ish haqi miqdorlarini oshirish (mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini oshirish bundan mustasno);

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan xizmat avtomobillari (maxsus avtotransport vositalari bundan mustasno), qimmatbaho yumshoq mebellar va ofis jihozlari (ta'lim, ilm-fan, sog'liqni saqlash, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida foydalaniladiganlardan tashqari) xarid qilish bo'yicha takliflar kiritish taqiqlanganligi;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan xizmat avtomobillari (maxsus avtotransport vositalari bundan mustasno), qimmatbaho yumshoq mebellar va ofis jihozlari faqatgina Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda xarid qilinishi;

Quyidagilar:

byudjet tashkilotlarining 2025-yil uchun xarajatlar smetasini tuzish jarayonida mebel va ofis jihozlari hamda tovar-moddiy zaxiralarini xarid qilish xarajatlari miqdorini 2024-yilga nisbatan 10-foizga kamaytirgan holda (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari va sog'liqni saqlash muassasalaridan tashqari) rejalashtirilishi;

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga byudjet xarajatlari parametrlarini shakllantirishda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmon vositalarini sotib olish, shuningdek, kommunal xizmatlar xarajatlaridan mablag'lar yetishmovchiligiga yo'l qo'yish;

mahalliy byudjet va uning qo'shimcha manbalari hisobidan normativ- huquqiy asosi bo'lmagan qo'shimcha shtat birliklarini saqlash;

moliyalashtirish manbai aniq bo'lmagan tadbirlarni amalga oshirish qat'iyani taqiqlanganligi;

2025-yil 1-yanvardan tuman (shahar) budjetlaridan mablag' bilan ta'minlanadigan sog'liqni saqlash muassasalarini saqlash xarajatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirishga o'tkazilishi;

tumanlar va shaharlar byudjetlarining xarajatlar qismi 6-ilovaga muvofiq xarajat yo'nalishlari bo'yicha shakllantirilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga tegishincha tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalarini 2024-yildagi hajmdan kam bo'lmagan miqdorda shakllantirish, bunda tuman va shaharlar byudjetlari uchun zarur bo'ladigan qo'shimcha mablag'larni tegishli yuqori turuvchi byudjetlarning zaxira jamg'armalari mablag'larini kamaytirish hisobiga rejalashtirish tavsiya etilganligi;

2025-yildan boshlab:

byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini, byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini tasdiqlash joriy moliya yilining 20-yanvaridan kechiktirmay hamda belgilangan tartibda iqtisodiyot va moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazish joriy yil 25-yanvargacha amalga oshirilishi;

byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari yanvar oyi uchun amal qilishi;

davlat maqsadli jamg'armalari, belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalar, ybudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalarining daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtat jadvallari joriy moliya yilining 20-yanvaridan kechiktirmay tasdiqlanishi hamda joriy yil 25-yanvargacha belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2025-yil 1-sentabrga qadar 2026-yildan boshlab vaqtinchalik xarajatlar smetalarini tuzish tartibini bekor qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritishi;

Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2025-2027-yillar uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

vazirlik va idoralar rahbarlari byudjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanishi;

vazirlik va idoralar maqsadli indikatorlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni hisobot choragidan keyingi o'ning yigirmanchi sanasiga qadar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etishi hamda yigirma beshinchi sanasiga qadar o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borishi;

har chorak yakuni bo'yicha har bir vazirlik va idoraning maqsadli indikator ko'rsatkichlari bajarilishi Vazirlar Mahkamasida Rayosati majlisida tizimli va tanqidiy tahlil qilinishi, bunda vazirlik va idoralarning maqsadli indikator ko'rsatkichlari bajarilishida sustkashlik va mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan tegishli rahbarlariga ta'sirchan choralar ko'rilishi;

tasdiqlangan byudjet parametrlariga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, vazirlik va idoralar maqsadli indikator ko'rsatkichlarini mablag'larning aniqlashtirilgan miqdoriga mutanosib ravishda o'zgartirishi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari hamda byudjet dasturlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni hisobot choragidan keyingi ikkinchi o'ning o'ninchi sanasiga qadar Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hisobot berish uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritib borishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-2027-yillar uchun byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari sinov tariqasida byudjet dasturlari kesimida ishlab chiqilganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

bunda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan 2025-yil 10-yanvarga qadar 2025-2027-yillar uchun byudjet dasturlari tasdiqlanadi va ushbu byudjet dasturlari Iqtisodiyot va moliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi byudjet dasturlarining ijrosini o'z vaqtida ta'minlashi belgilanganligi;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2025-yil 1-avgustga qadar 2026-2028-yillar uchun byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni taqsimlashni nazarda tutuvchi byudjet dasturlarini ishlab chiqishi va 2026-yil Davlat byudjeti loyihasida ko'zda tutish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritishi;

bir oy muddatda dasturiy byudjetlashtirish tizimi joriy etilayotgan vazirlik va idoralar tuzilmasida belgilangan shtat birliklari doirasida 3 ta shtat birligidan iborat byudjet dasturlarini shakllantirilishi, monitoring qilish va ularning ijrosini muvofiqlashtirish bo'limi tashkil etilishi belgilanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi bir oy muddatda tashabbusli byudjet uchun har yili tuman (shahar) byudjetida mablag'larni rejalashtirishda hududdagi aholi sonidan kelib chiqib, lekin har bir tuman yoki shaharda 10 tadan kam bo'lmagan loyiha uchun yetarli mablag' rejalashtirish amaliyotini joriy etish yuzasidan Oliy Majlis Senati Kengashiga taklif kiritilishi;

G'aznachilik xizmati qo'mitasi 2025-yil 1-yanvardan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalariga majburiy yig'imlar, bojlar va jarimalar hisobidan kelib tushgan mablag'larning hamda mazkur jamg'armalarning bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklariga joylashtirishdan olingan daromadlarning 40 foizini Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimida avtomatik tarzda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga o'tkazishi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab g'aznachilik xizmati bilan qamrab olingan davlat ishtirokidagi korxonalarining vaqtincha bo'sh turgan milliy va xorijiy valyutadagi mablag'larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirish ularning so'rovlari asosida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi tomonidan o'tkaziladigan elektron auksion orqali amalga oshirilishi belgilanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligining quyidagi:

yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalaridan iborat bo'lgan va xodimlar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan egallangan yer uchastkalariga nisbatan soliq stavkalariga 0,1 koeffitsiyent qo'llash;

Davlat ishtirokidagi korxonalarga yetkazilgan zararni Davlat budjetiga undirishda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari sud va tergov jarayonida fuqaroviy da'vogar sifatida ishtirok etishi takliflariga rozilik berilganligi;

ilmiy tadqiqotlar, shu jumladan, yosh olimlar (40 yoshgacha) ilmiy faoliyati uchun zarur bo'lgan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan uskuna, butlovchi qism va kimyoviy vositalarni (keyingi o'rinlarda tovarlar) olib kirish 2027-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod etilishi va ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi belgilanganligi;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Yoshlar ishlari agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda ikki oy muddatda ilmiy tadqiqotlar, shu jumladan, yosh olimlar (40 yoshgacha) ilmiy faoliyati uchun zarur bo'lgan tovarlar ro'yxatini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritishi va zaruratga ko'ra qo'shimcha takliflar kiritib borishi;

Statistika agentligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda byudjet tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarning asosiy vositalarini qayta baholashda indeks usulini qo'llash uchun har yili 31-dekabr qadar tegishli qayta baholash indekslarini ishlab chiqishi va rasmiy ravishda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishi;

Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda 2025-yil uchun byudjet siyosati konsepsiyasida belgilangan yo'nalishlar ijrosini ta'minlash, shuningdek, qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash, xarajatlar samaradorligini oshirish hamda byudjet intizomiga rioya qilish yuzasidan "yo'l xaritasi"ni tasdiqlashi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Abdusalomov), Davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov) mazkur qaror ilovasida ko'rsatilgan 2025-yil uchun Mingbuloq tumani byudjeti daromadlari prognozining bajarilishi yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rsin.

4. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Abdusalomov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev), byudjet mablag'lari taqsimlovchilar:

tegishli byudjetlarini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilishini ta'minlasin;

xalq deputatlari tuman Kengashining byudjet sohasidagi vakolatlarini yanada oshirish maqsadida byudjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to'g'risida mahalliy Kengashga hisobot berib borsin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta‘mirlash ishlarini moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdusalomov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jurabayev):

byudjet kodeksining 126-moddaga asosan tuman byudjetlarining qo‘shimcha manbalardan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tegishli ravishda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tuman hokimligining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida qabul qilish;

tuman byudjeti qo‘shimcha manbalarining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish;

mahalliy byudjetning xarajatlar qismini sifatli ijro etilishi hamda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini qattiq nazorat qilish, bunda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet ijrosiga oid qarorlari va farmoyishlari talablariga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlash vazifalari topshirilsin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdusalomov), Davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov) bilan birgalikda mahalliy byudjetga belgilangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan tushumlarni yil davomida oyma-oy muntazam ravishda, to‘laqonli hamda bir maromda undirilishini ta‘minlasin hamda tuman bo‘yicha mavjud boqimanda qarzlarni keskin kamaytirish borasida aniq chora-tadbirlar ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdusalomov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Shodmonov), barcha byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar bilan birgalikda:

byudjet tashkilotlarining foydalanilmayotgan bino va yerlarini ijaraga berish imkoniyatlarini va undan daromad olish maqsadida har bir hududdagi byudjet tashkilotlari kadastr hujjatlarini qayta inventarizatsiyadan o‘tkazsin;

xatlov natijasi bo‘yicha aniqlangan bo‘sh bino va yerlarni belgilangan tartibda ijaraga berish ishlarini amalga oshirsin.

8. G‘aznachilik bo‘limi (M.Najmiddinov) davlat daromadlaridan respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarga ajratmalarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri o‘tkazilishini tizimli nazoratga olinishini, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlari to‘lovini o‘rnatilgan tartibda va belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta‘minlab borsin.

9. Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (O.Xujayev), Tibbiyot birlashmasi (O.Qo‘ldoshev), Madaniyat bo‘limi (R.Xoliqova), Yoshlar agentligi (M.Mamasobirov)larga:

Byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni ustuvor ravishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Davlat dasturlari ijrosi uchun yo‘naltirilishini tashkil etish;

tizim tashkilotlari uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablari asosida maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish;

tizim bo‘yicha har bir byudjet tashkilotlari rahbar xodimlarini mazkur masalada shaxsiy mas‘uliyati va javobgarliklarini oshirish;

byudjet mablag‘larni noqonuniy sarflash hamda kamomadlarini oldini olish, doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib borish hamda bu yuzasidan tizimli ishlar tashkil etish vazifalari topshirilsin.

10. Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jurabayev) va Davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov) mazkur qarorning bajarilishi to‘g‘risida tuman hokimligiga har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar axborot berib borsin.

11. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 17-yanvardagi
19-6-81-Q/25-son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Mingbuloq tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi

№	Daromad turlari	Summa (ming soʻmda)
	JAMI	80 474 400
1	Aylanmadan olinadigan soliq	3 194 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	48 295 000
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	338 000
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 002 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	6 434 000
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	2 254 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	13 146 000
8	Qurilish materiallari boʻyicha yer qaʻridan foydalanganlik uchun soliq	12 000
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	9 398 600
	<i>shundan: Qishloq xoʻjaligi korxonalarini boʻyicha suv soligʻi</i>	<i>9 393 000</i>
	<i>Qishloq xoʻjaligi korxonalarini suv soligʻining 40 foizini qaytarish (PQ-5)</i>	<i>3 757 200</i>
10	Davlat ulushi boʻyicha dividendlar va davlat korxonalarini foydasidan ajratmalar	7 000
11	Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari	151 000